THE PERSPECTIVE OF NEW ERA SCIENCES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
www.global-science-review.com
editor@global-science-review.com

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISHNING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI SAMARADORLIGI VA INKLYUZIV O‘SISH MASALALARI: TAHLILIY YONDASHUV

Shakirova Nigora Axralovna
Tashkent State University of Economics
PhD, Associate Professor, Department of Economic Statistics
Phone: +998943640050
E-mail:shakirova0130@gmail.com
ORCID:https://orcid.org/0009-0006-5025-4764

Shuxratov Suxrob Shuxrat og’li *Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Moliya fakulteti 2-kurs talabasi Tel: +998919475922 E-mail:*suxrobshuxratov@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy o‘sishning kambag‘allikni qisqartirishdagi samaradorligi va elastikligi, o‘sish ne’matlarining hududlar va daromad guruhlari o‘rtasida taqsimlanishi hamda inklyuziv (“pro-poor”) o‘sish modelini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2021–2025-yillarda milliy kambag‘allik darajasi 17,0 foizdan 5,8 foizga tushib, 3,7 million kishi kambag‘allikdan olib chiqilgani, o‘sishning kambag‘allikni qisqartirish elastikligi (8,30 dollar, 2021 PPP mezonida) esa 3,3 dan 5,6 gacha oshgani ko‘rib chiqiladi. Maqolada daromadlar bo‘yicha hududiy divergensiya va kambag‘allik bo‘yicha konvergensiya jarayonlari qiyosiy yoritiladi, shuningdek o‘sishning kambag‘allikka uzatilish kanallari — bandlik, ijtimoiy transfertlar va mehnat migratsiyasi tahlil qilinadi. Alohida e’tibor inklyuziv o‘sishni ta’minlovchi omillar — inson kapitali, infratuzilma, manzilli ijtimoiy himoya va mahsuldor bandlikka qaratiladi. Tadqiqot uchun kontent-tahlil, qiyosiy-tahliliy va tavsifiy statistik metodlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sishning kambag‘allikni qisqartirishdagi samaradorligi faqat uning sur’atiga emas, balki

sifatiga, ya’ni bandlik, inson kapitali, infratuzilma va ijtimoiy himoya tizimining uyg‘un ta’siriga bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, kambag‘allikni qisqartirish, o‘sish elastikligi, daromadlar tengsizligi, hududiy konvergensiya, pro-poor o‘sish, inklyuziv o‘sish, ijtimoiy himoya, O‘zbekiston, iqtisodiyot.

Abstract: This article examines the efficiency and growth elasticity of poverty reduction in the Republic of Uzbekistan, the distribution of growth benefits across regions and income groups, and the ways of improving an inclusive, pro-poor growth model. The study reviews how the national poverty rate fell from 17.0 percent in 2021 to 5.8 percent in 2025, lifting about 3.7 million people out of poverty, and how the growth elasticity of poverty at the $8.30 (2021 PPP) line rose from 3.3 to 5.6. The article offers a comparative analysis of regional income divergence and poverty convergence and identifies the channels through which growth reaches poor households: employment, social transfers, and labor migration. Particular attention is given to the factors of inclusive growth — human capital, infrastructure, targeted social protection, and productive employment. Content analysis, comparative-analytical and descriptive statistical methods were applied. The findings show that the effectiveness of growth in reducing poverty depends not only on its pace but also on its quality, that is, on the combined effect of employment, human capital, infrastructure, and the social protection system.

Keywords: economic growth, poverty reduction, growth elasticity, income inequality, regional convergence, pro-poor growth, inclusive growth, social protection, Uzbekistan, economics.

KIRISH

Makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishi o‘z-o‘zidan aholi farovonligining bir xilda oshishiga hamda kambag‘allik va tengsizlikning avtomatik ravishda tugashiga olib kelmaydi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda “2022–2026-yillarda kambag‘allikni qisqartirish

strategiyasi” hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini oshirish, kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash va aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan [1]. Biroq iqtisodiy o‘sishning haqiqiy samaradorligi ushbu o‘sish ne’matlarining aholi daromad guruhlari va hududlar o‘rtasida qanchalik teng taqsimlanishiga hamda kambag‘allikni qisqartirish elastikligiga bog‘liqdir [2].

Mavzuning dolzarbligi ikki jihat bilan izohlanadi. Birinchidan, 2021–2025-yillarda kambag‘allikning keskin qisqarishi va o‘sish elastikligining ortishi bu natijalarning barqarorligi hamda ularni ta’minlagan omillarni aniqlashni taqozo etadi. Ikkinchidan, hududlar kesimida daromadlar bo‘yicha ajralish kuzatilayotgan bir sharoitda kambag‘allik bo‘yicha tafovutlarning qisqarishi iqtisodiy o‘sishning hududiy xarakterini alohida o‘rganishni talab qiladi.

Tadqiqotda o‘sish elastikligi (Growth Elasticity of Poverty) iqtisodiy o‘sish yoki iste’mol 1 foizga oshganda kambag‘allik darajasi necha foizga kamayishini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich sifatida tushuniladi. “Pro-poor” (kambag‘allarni qo‘llab-quvvatlovchi) o‘sish deganda esa quyi daromadli qatlamlar daromadi o‘rtacha ko‘rsatkichdan tezroq o‘sadigan iqtisodiy o‘sish nazarda tutiladi.

Maqolaning maqsadi — O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish, daromadlar taqsimoti va kambag‘allik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimlashtirish va tahlil qilish hamda inklyuziv o‘sish modelini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish uchun uchta savolga javob izlandi: (1) iqtisodiy o‘sishning kambag‘allikni qisqartirish elastikligi qanday darajada va u so‘nggi yillarda qanday o‘zgardi; (2) 14 ta hudud o‘rtasida daromadlar va kambag‘allik bo‘yicha yaqinlashuv jarayonlari qanday kechmoqda; (3) o‘sish kambag‘al xonadonlar farovonligiga qaysi kanallar orqali yetib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iqtisodiy o‘sish, tengsizlik va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiyot fanining markaziy muammolaridan biridir. D.Dollar va A.Kraay iqtisodiy o‘sish va

kambag‘allik munosabatlarini o‘rganib, aholining eng kambag‘al qatlamlari daromadlari umumiy o‘rtacha daromad bilan bir xil darajada o‘sadi, degan xulosaga kelgan [3]. F.Bourguignon “kambag‘allik–iqtisodiy o‘sish–tengsizlik” uchburchagi konsepsiyasini ishlab chiqib, kambag‘allik darajasining o‘zgarishini o‘rtacha daromadlar o‘sishi hamda daromadlar tengsizligi o‘zgarishining birgalikdagi ta’siri sifatida tushuntirgan [4]. M.Ravallion va R.Adams tadqiqotlarida esa o‘sish elastikligi daromadlar tengsizligining boshlang‘ich darajasiga (Gini indeksiga) bog‘liqligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda mavzu bir necha yo‘nalishda o‘rganilgan. S.Sh.Akbarova 2001–2021-yillarda iqtisodiy o‘sish va kambag‘allik o‘zgarishi dinamikasini tahlil qilgan [5], Z.A.Musayeva esa kambag‘allik, tengsizlik, iqtisodiy rivojlanish va byudjet imkoniyatlarining o‘zaro ta’sirini ko‘rib chiqqan [6]. A.Usmanova 2000–2021-yillar ma’lumotlari bo‘yicha YaIM o‘sishi 1 yillik, soliqlar esa 2 yillik kechikish bilan kambag‘allikni kamaytirishini, YaIM va kambag‘allik o‘rtasida bir tomonlama bog‘liqlik mavjudligini aniqlagan [7]. Sh.Sh.Adilov O‘zbekiston hududlarining 2015–2025-yillardagi ma’lumotlari asosida daromadlar bo‘yicha hududiy ajralish kuchayganini, kambag‘allik bo‘yicha esa hududlar o‘rtasida tez yaqinlashuv kuzatilganini ko‘rsatgan [8]. M.Muydinov infratuzilma investitsiyalari va inson kapitali xarajatlari regional daromadlar tengsizligini kamaytirishda eng samarali vositalar ekanini, qo‘shni hududlar iqtisodiy o‘sishining o‘zaro ijobiy ta’sirini asoslagan [9]. S.Alikulov va M.Alikulova xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi, bandlik va kapital qo‘yilmalar kambag‘allikni kamaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [10]. R.M.Naimov esa barqaror iqtisodiy o‘sish sharoitida kambag‘allikni aniqlash konsepsiyalari hamda inson kamoloti indeksini oshirish mexanizmlarini tahlil qilgan [11].

Metodologik jihatdan tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: (a) kontent-tahlil metodi — mavzuga oid ilmiy manbalar va xalqaro tashkilotlar

hisobotlarini tizimli tahlil qilish uchun; (b) qiyosiy-tahliliy metod — kambag‘allik va tengsizlik ko‘rsatkichlarini yillar, hududlar va aholi guruhlari kesimida taqqoslash hamda O‘zbekiston tajribasini boshqa o‘tish davri mamlakatlari bilan solishtirish uchun; (v) tavsifiy statistik metod — Statistika agentligining Uy xo‘jaliklari byudjeti so‘rovnomalari (HBS, 16 000 ga yaqin uy xo‘jaligi), Jahon bankining PIP (Poverty and Inequality Platform) hamda GMD (Global Monitoring Database) ma’lumotlar bazalaridagi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish uchun [2]; (g) tizimli yondashuv — o‘sish, bandlik, ijtimoiy transfertlar va kambag‘allik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yaxlit ko‘rib chiqish uchun. Tahlil asosan 2021–2025-yillarni, hududiy qismi esa 14 ta hudud bo‘yicha 2015–2025-yillarni qamrab oladi.

NATIJALAR

1. Kambag‘allik va iqtisodiy o‘sish dinamikasi. 2009–2014-yillarda jon boshiga YaIMning 1 foizli o‘sishi kambag‘allikni 1,5 foizga, 2015–2019-yillarda esa atigi 1,1 foizga qisqartirgan edi [1]. 2021-yildan e’tiboran yangi HBS so‘rovnomalari va kuniga 16 600 so‘mlik milliy kambag‘allik chizig‘i joriy etildi. 1-jadvalda 2021–2025-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval. O‘zbekistonda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va kambag‘allik darajasi dinamikasi (2021–2025-yillar)

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	Manba
Aholi jon boshiga YaIM o‘sishi, %	+6,1	+4,0	+4,1	+4,6	+5,7	World Bank / Stat.uz
Jon boshiga iste’mol xarajatlari (HFCE) o‘sishi, %	+9,5	+8,8	+4,8	+9,2	+7,1	World Bank National Accounts

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	Manba
Milliy kambag‘allik darajasi (16 600 so‘m/kun), %	17,0	14,1	11,0	8,9	5,8	Statistika agentligi / WB
Kambag‘al aholi soni, mln kishi	6,0	5,0	3,9	3,2	2,3	WB HBS hisob-kitoblari
8,30 dollar (2021 PPP, UMIC) chizig‘i bo‘yicha kambag‘allik, %	38,0	32,4	24,8	20,8	12,4	PIP / World Bank

Ushbu o‘zgarishlar natijasida milliy kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17,0 foizdan 2025-yilda 5,8 foizga tushdi va 3,7 million kishi kambag‘allikdan olib chiqildi [2]. Xalqaro 8,30 dollar (2021 PPP, UMIC) chizig‘i bo‘yicha kambag‘allik esa 38,0 foizdan 12,4 foizga pasaydi.

2. O‘sishning kambag‘allikni qisqartirish elastikligi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 8,30 dollar chizig‘i bo‘yicha real iste’mol xarajatlarining 1 foizga oshishi kambag‘allik darajasini 2021–2025-yillarda o‘rtacha 3,3 foizga kamaytirgan. 2024–2025-yillarda daromadlar o‘sishi quyi daromadli qatlamlar uchun jadalroq kechishi natijasida elastiklik ko‘rsatkichi 5,6 ga yetdi [2]. Bu o‘sishning kambag‘allikni qisqartirish “quvvati” avvalgi davrlarga nisbatan sezilarli oshganini bildiradi.

3. Hududiy tafovutlar. O‘zbekistonning 14 ta hududi kesimida ikki qarama-qarshi jarayon kuzatildi. Birinchidan, aholi jon boshiga daromadlar bo‘yicha hududiy variatsiya koeffitsiyenti 2015-yildagi 0,338 dan 2025-yilda 0,466 gacha oshdi, ya’ni daromadlar bo‘yicha ajralish (divergensiya) kuchaydi. Bu jarayon asosan Toshkent shahrining jadal o‘sishi bilan bog‘liq: shahar chiqarib tashlanganda qolgan 13 ta hudud o‘rtasidagi variatsiya koeffitsiyenti 0,248–0,252 atrofida barqaror saqlangan [8]. Ikkinchidan, kambag‘allik darajasi bo‘yicha hududiy tafovut

2021-yildagi 0,444 dan 2025-yilda 0,157 gacha qisqardi, 2021-yildagi 27 foiz punktlik eng yuqori va eng past hududiy farq esa 2025-yilga kelib qariyb yo‘qoldi. Hududlar o‘rtasida kambag‘allik bo‘yicha yaqinlashuv tezligi yiliga 20–43 foiz, yarim-davr ko‘rsatkichi esa 1,6–2,7 yil atrofida baholangan [8]. Shuningdek, 2023–2025-yillardagi kambag‘allik qisqarishining asosiy qismi (97,7 foiz) barcha hududlar uchun umumiy bo‘lgan respublika miqyosidagi makroiqtisodiy va institutsional omillar hisobiga to‘g‘ri kelgan [8]. Qishloq joylarda kambag‘allik 19,8 foizdan 6,4 foizga, shahar joylarida esa 13,9 foizdan 5,2 foizga tushib, qishloq-shahar o‘rtasidagi tafovut 5,9 foiz punktidan 1,2 foiz punktigacha toraydi.

4. O‘sishning kambag‘allikka uzatilish mexanizmlari. Tahlil iqtisodiy o‘sishning kambag‘al xonadonlar farovonligiga o‘tishida uchta asosiy kanal belgilovchi rol o‘ynaganini ko‘rsatdi: (1) yollanma bandlik va ish haqi daromadlari — kambag‘al xonadonlarda real ish haqining jadal o‘sishi hamda o‘zini o‘zi band qilishdan rasmiy yollanma mehnatga o‘tilishi kambag‘allikni qisqartirishning eng asosiy drayveri bo‘ldi; (2) ijtimoiy transfertlar va pensiyalar — aholi qarishi natijasida kambag‘al xonadonlarda yoshga doir pensiya oluvchilar ulushi ortdi va ijtimoiy sug‘urtaning roli kuchaydi, biroq kam ta’minlangan oilalar nafaqalari (LIFA) qamrovi va samaradorligining yetarsizligi ijtimoiy yordam ta’sirini biroz chekladi; (3) mehnat migratsiyasi va pul o‘tkazmalari — xorijiy mehnat migratsiyasidan tushadigan pul o‘tkazmalari xonadonlar daromadining tebranishini yumshatuvchi muhim bufer vazifasini o‘tadi.

5. Pro-poor o‘sish va tengsizlik. 2021–2025-yillarda daromadlar va iste’mol o‘sishi quyi 40 foiz qatlam (Bottom 40) uchun jadalroq kechdi, ya’ni o‘sish aniq pro-poor xarakterga ega bo‘ldi [2]. O‘rta qatlam (middle class) ulushi 2021-yildagi 37 foizdan 2025-yilda 72 foizga yetdi, moddiy zaif qatlam ulushi esa 46 foizdan 22 foizga tushdi. Gini koeffitsienti 2021–2025-yillarda 31,2 va 34,6 oralig‘ida tebranib, mo‘tadil tengsizlik darajasini ko‘rsatdi, farovonlik tafovuti (prosperity gap) ko‘rsatkichi esa 3,8 dan 2,4 gacha pasaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar iqtisodiy o‘sishning kambag‘allikni qisqartirishdagi samaradorligi ko‘p qatlamli hodisa ekanini tasdiqlaydi. O‘zbekistonning 2021–2025-yillardagi natijasi Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng jadal natijalardan biri bo‘lib, mintaqaviy kambag‘allik qisqarishining qariyb 40 foizini ta’minladi [12, 2]. Elastiklikning 3,3 dan 5,6 gacha oshishi Vyetnam, Xitoy va Belarus kabi jadal rivojlangan o‘tish davri mamlakatlari tajribasiga mos keladi [2].

Hududiy natijalar o‘sish va tengsizlik o‘rtasidagi munosabatga ikki tomonlama yondashishni talab qiladi. Daromadlar bo‘yicha ajralish asosan bitta hudud — Toshkent shahri hisobiga yuz berdi, kambag‘allik bo‘yicha esa hududlar tez yaqinlashdi. Kambag‘allik qisqarishining aksariyat qismi hududga xos emas, umumiy makroiqtisodiy va institutsional omillarga bog‘liq bo‘lgani bu jarayonda respublika miqyosidagi siyosat — ish haqi, pensiyalar va ijtimoiy transfertlar — hal qiluvchi rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Bu xulosa Bourguignon konsepsiyasi bilan uyg‘un: kambag‘allikning qisqarishi o‘sish bilan birga tengsizlik dinamikasiga ham bog‘liq [4].

Mavjud tadqiqotlar infratuzilma investitsiyalari va inson kapitali xarajatlarini hududiy daromadlar konvergensiyasining eng barqaror omillari sifatida ko‘rsatadi [9], YaIM o‘sishining kambag‘allikka ta’siri esa taxminan 1 yillik kechikish bilan namoyon bo‘ladi [7]. Demak, bugungi yutuqlarni mustahkamlash uchun o‘sishning tarmoq va hududiy tarkibi hamda inson kapitaliga qilinayotgan investitsiyalarning sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, LIFA qamrovi va samaradorligining yetarsizligi manzilli ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning cheklovlari quyidagilardan iborat. Birinchidan, 2021-yilda HBS metodologiyasi modernizatsiya qilingani sababli 2021-yilgacha va undan keyingi ma’lumotlar uslubiy jihatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslanmaydi. Ikkinchidan, norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi daromadlarni aniq o‘lchashda muayyan

cheklov yaratadi. Uchinchidan, ushbu maqola asosan tahliliy-tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, o‘sishning kambag‘allikka sababiy ta’sirini miqdoriy baholashni o‘z oldiga qo‘ymagan; kelgusi tadqiqotlarda bunday baholashni amalga oshirish tavsiya etiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, 2021–2025-yillarda O‘zbekistonda milliy kambag‘allik darajasi 17,0 foizdan 5,8 foizga tushdi, o‘sishning kambag‘allikni qisqartirish elastikligi esa 3,3 dan 5,6 gacha oshdi, bu o‘sishning pro-poor xarakter kasb etganini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, hududlar kesimida daromadlar bo‘yicha ajralish (asosan Toshkent shahri hisobiga) kuchayganiga qaramay, kambag‘allik bo‘yicha hududiy tafovutlar keskin qisqardi. Uchinchidan, o‘sishning kambag‘allikka uzatilishida bandlik va ish haqi, ijtimoiy transfertlar hamda mehnat migratsiyasi asosiy kanallar bo‘lib xizmat qildi.

Shu munosabat bilan quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi: inson kapitali va ta’lim, ayniqsa kasb-hunar ta’limi sifatiga yo‘naltirilgan investitsiyalarni ko‘paytirish; hududlararo infratuzilma va transport bog‘liqligini hamda raqamli qamrovni rivojlantirish; “Ijtimoiy reyestr” tizimini takomillashtirish, LIFA qamrovini oshirish va daromad solig‘i bo‘yicha progressivlikni ta’minlash; kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali xizmatlar va agrobiznesda unumdorligi yuqori bo‘lgan rasmiy yollanma ish o‘rinlarini ko‘paytirish. Ushbu kompleks yondashuv kambag‘allikning qisqarishini barqaror va inklyuziv xarakterda saqlab qolishning muhim shartidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

World Bank. Toward a Prosperous and Inclusive Future: The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan. – Washington, DC: World Bank Group, 2022. – P. 1–150.

World Bank. Uzbekistan Poverty and Equity Assessment: Rising to Prosperity: Broadening Opportunities for All. – Washington, DC: World Bank Group, 2026. – Report No. 214948. – P. 1–195.

Dollar D., Kraay A. Growth still is good for the poor // World Bank Policy Research Working Paper, WPS6568. – Washington, D.C., 2013. – P. 1–42.

Bourguignon F. The poverty-growth-inequality triangle // The World Bank Paper. – Washington, D.C., 2004. – P. 1–28.

Akbarova S.Sh. Kambag‘allikni qisqartirishning nazariy asoslari // “Yangi O‘zbekistonda statistika nazariyasi va amaliyotidagi islohotlar: muammolar va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – 3(24), Dec. 2023. – Oriens.uz. – 218–224-b. – DOI: 10.5281/zenodo.10532801.

Musayeva Z.A. Kambag‘allik, tengsizlik, iqtisodiy rivojlanish va byudjet imkoniyatlarining o‘zaro ta’siri // Ekonomika i obrazovanie. – Tom 23, Maxsus son, 2022. – 34–40-b.

Usmanova A. The impact of economic growth and fiscal policy on poverty rate in Uzbekistan: application of neutrosophic theory and time series approaches // International Journal of Neutrosophic Science (IJNS). – Vol. 21, No. 02, 2023. – P. 107–117. – DOI: 10.54216/IJNS.210210.

Adilov Sh.Sh. Финансовые ограничения агробизнеса, реформа института несостоятельности и география сельской бедности: Узбекистан, 2015–2025 годы // Muhandislik va iqtisodiyot. – № 9, sentyabr 2026. – 21–28-b.

Muydinov M. Policy instruments for reducing regional income inequality in Uzbekistan: Evidence from panel and spatial econometric analysis // Modern American Journal of Business, Economics, and Entrepreneurship. – Vol. 01, Issue 09, Dec. 2025. – P. 344–363.

Alikulov S., Alikulova M. O‘zbekistonda xizmatlar sektorini rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish: empirik tahlil (2000–2024) // Green Economy and Development. – Vol. 3(2), Feb. 2025. – P. 1–12. – DOI: 10.5281/zenodo.14890330.

Naimov R.M. Barqaror iqtisodiy o‘sish asosida kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlari // Analysis of Modern Science and Innovation. – Vol. 1, 2024. – P. 104–112.

Knight D., Pimhidzai O., Uochi I. Charting Uzbekistan's path to poverty reduction: insights from international comparisons // World Bank Data Blog. – May 9, 2024.